

## INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARIDA GENDERNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

*Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti  
Umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Tilshunoslik fan sifatida tobora rivojlanib borar ekan unda til va jins tushunchalarining o'zaro bog'liqligini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi mazkur fanga tegishli terminologik masalalarni ko'rib chiqish ehtiyojini tug'dirdi.*

*Boshqa sohalarda ham keng tadbiriq qilinayotgan gender terminining qo'llanilishi tilshunoslikka qanday ta'sir etishi va qanday o'zgarishlarga olib kelishi olimlar diqqatidan chetda qolmadi. Mazkur maqolada tilshunoslikning muhim qatlamlaridan biri bo'lgan paremiologik birliklar orasida gender masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif mazkur masalani misollar yordamida yoritib berishga harakat qilgan.*

*Kalit so'zlar: gender, tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, ayol, erkak, paremiologik birliklar, frazeologizmlar, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunosligi, semantika, semantik birlik.*

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПАРЕМИИ

*Хакимбаева Озода Каландаровна*

*Узбекский государственный университет мировых языков, 1- факультет иностранного языка и литературы Преподаватель кафедры общего языкознания*

*Аннотация: По мере все большего развития лингвистики как науки возросший интерес к изучению соотношения понятий языка и пола создал необходимость рассмотрения терминологических вопросов, связанных с этой наукой.*

*От внимания ученых не ускользнуло то, как употребление термина «гендер», широко используемого в других областях, влияет на лингвистику и какие изменения оно вызывает. В данной статье рассматриваются гендерные вопросы среди паремиологических единиц, которые являются одним из важных пластов языкознания. Автор попыталась прояснить этот вопрос с помощью примеров.*

*Ключевые слова: гендер, лингвистика, английский язык, узбекский язык, женский, мужской, паремиологические единицы, фразеологизмы, когнитивная лингвистика, гендерная лингвистика, семантика, семантическая единица.*

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF GENDER IN THE ENGLISH AND UZBEK PAREMIA

*Khakimbayeva Ozoda Kalandarovna*

*Uzbekistan State University of World Languages, 1st Faculty of Foreign Language and Literature  
Teacher of the Department of General Linguistics*

*Annotation: As linguistics as a science develops more and more, the increased interest in studying the relationship between the concepts of language and gender has created the need to consider terminological issues related to this science.*

*How the use of the term gender, which is widely used in other fields, affects linguistics and what changes it causes not to have been escaped the attention of scientists. This article examines gender issues among paremiological units, which are one of the important layers of linguistics. The author tried to clarify this issue with the help of some examples.*

*Key words: gender, linguistics, English language, Uzbek language, female, male, paremiological units, phraseologisms, cognitive linguistics, gender linguistics, semantics, semantic unit.*

*Kirish. Tildagi o'ziga xos frazeologik sistemaning milliy-madaniy muammolari hozirgi vaqtda ko'plab tilshunoslarning tadqiqot obyektiga aylanganligi bejiz emas. Buni oxirgi yillari til va madaniyat muammosiga bo'lgan e'tibor va qiziqish, zamonaviy tilshunoslikning antropologik paradigmada*

rivojlanishi bilan tushuntirish mumkin. Frazeologizmlarning gender, kognitiv, pragmatik xususiyatlari bir qancha tilshunos olimlar ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni qiyosiy jihatdan leksik, semantik, grammatik sathlarda tadqiq etish, ularning kognitiv, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullaev, A.E. Mamatov, B. Yo'ldoshev, P.U. Bakirov, M.K. Xoliqova, B.X. Reimov, A.R. Ismailov, G.S. Hakimova, K.D. To'xtayeva, B.M. Jo'rayeva va boshqalarning tadqiqotlari.

Yevropa tillari gender tilshunosligida ancha keng o'rganilgan. Demak, o'zbek tili frazeologizmi va maqollarida ayol va erkak konseptlari gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan qiyosiy tadqiq etilmaganligi va ilmiy tahlilga tortilmaganligi, o'rganilganlari esa matn nuqtai nazaridan tahlil qilinmaganligi uchun ularni hozirgi zamon tilshunoslik nazariyalari asosida kompleks holda tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tilshunoslik fanining obyektini til bo'lib, u har xil davrlarda, ya'ni tilning xususiyati, vazifalari turli nuqtai nazardan o'rganib kelingan. Oxirgi o'n yillikda bilishning yangi metodologik yo'nalishi, ya'ni kognitiv yondashuv asosida olib borilayotgan tadqiqotlarning keng tus olishi natijasida kognitiv tilshunoslik – til haqidagi fanning eng jadal rivojlanib kelayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi 1970 yillarning II yarmida mavjud bo'lgan amerikalik olimlar ishlari bilan bog'liq (Lakoff; Paivio; Taylor va boshq.). Ushbu sohada rus tilshunos olimlari ham muvaffaqiyatli ish olib borishmoqda va uning ayrim nazariyalarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shib kelmoqdalar (E. Kubryakova; O. Kolosova; A. Baranov; R. Frumkina va boshq.).

Til va kognitsiyaning o'zaro bog'liqligiga bag'ishlangan talaygina ishlar o'zbek tilshunosligida ham yangi soha sifatida o'z o'rnini topib kelmoqda (D.U. Ashurova, Sh. Safarov, O'. Yusupov). Zero, kognitiv tilshunoslik o'zini fan sifatida oqladi.

Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik asosan semantika bilan shug'ullanadi, shuning uchun bo'lsa kerak uni "izchil semantika" sifatida ham ta'riflashadi. Til birliklari dunyoda mavjud bo'lgan predmetlar va sodir bo'ladigan harakatlarni ifodalashga xizmat qilar ekan, semantika til birliklarining real yoki tasavvurdagi olam o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turadi. Bu munosabatlarni esa tilshunoslik semantikasi o'rganadi. Semantika tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shaxsning so'z va grammatik qoidalar yordamida qanday qilib har xil ma'lumotni yetkazib bera olishi mumkin degan savolga javob bersa [8; 49], kognitiv tilshunoslikning diqqat markazida nafaqat "til formasi va substansiyasi birligi", balki undanda muhimroq "til va inson birligi" turadi [6; 35], uning strukturaviy tilshunoslikdan farqi ham ana shunda. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik kommunikativ pragmatika va diskurs nazariyasi bilan chambarchas bog'liq.

Kognitiv ilm-fan nazariy informatsion modellarni qo'llash asosida ong va oliy idrok etish jarayonlarini o'rganuvchi fan sifatida ham ta'riflanadi [7; 264].

Kognitiv tilshunoslikning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u tilni inson bilan, ya'ni uning ongi, bilimi, fikrlash va anglash jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rishga imkon beradi [9; 81], unda asosiy e'tibor til formalari va har qanday til hodisalari inson bilimi va tajribasi bilan qanday bog'langanligi va ularning inson ongida qanday tasvirlanishiga qaratiladi. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik til haqidagi fan va inson psixikasi haqidagi fan bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixini davom ettirmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi (A.A. Potebnya, G. Shteyntal, V. Vundt). Chunki tilshunoslik va psixologiya fanlari o'z metodologiyasiga ko'ra keskin farq qiluvchi ikki xil ijtimoiy fan bo'lishiga qaramasdan, tilning shakllanishi ma'lum psixologik mexanizmlarga tayanadi.

Kognitiv yondashuv – til voqea-hodisalarini bilish nazariyasi yordamida izohlab berish usullaridan biri bo'lsa [10; 16-17], kognitiv tilshunoslik psixolingvistika bilan chambarchas bog'liq, deyish mumkin. Chunki "psixolingvistika fan sifatida lingvistik gipotezalarni psixologik jihatdan asoslasi (yoki boshqacha qilib aytganda psixologik metodologiyaning tilshunoslik nazariyasiga tatbiq etilishi), kognitiv tilshunoslik esa psixologik gipotezalarni lingvistik (realligini aniqlab) asoslaydi" [11; 7].

O'. Yusupov kognitiv tilshunoslikning vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- 1) insondagi bilimlarning paydo bo'lishida tilning rolini aniqlash;
- 2) olam va undagi narsalarni kategoriyalashtirish (tushunchalar hosil qilib, ularni turlarga bo'lish), konseptualashtirish (konseptlar hosil qilish) va atash (nominatsiya) jarayonlarini tushunish;
- 3) konseptual sistema bilan til sistemasi o'rtasidagi munosabatni aniqlash;
- 4) olamning lisoniy va kognitiv (konseptual) tasvirlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishdir

[12; 49].

Tadqiqotimizda kognitiv tilshunoslikning yuqorida aytib o'tilgan vazifalaridan to'rtinchisi, ya'ni olamning lisoniy va kognitiv tasvirlari bilan bog'liq masalalar tilning frazeologik tizimida gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Mazkur ishda tilning frazeologik tizimida bilish nazariyasi orqali ayol va erkak tushunchalarining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlar ekanmiz, gender tilshunosligining lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlash mumkin.

D. Kurtson ham gender tilshunosligini sotsiolingvistikaning bir bo'limi sifatida ta'riflaydi: "Gender linguistics, a branch of linguistics that is part of sociolinguistics ..." [5; 2].

Ayollar hamda erkaklar so'zlashuvdagi tafovut sezilganligiga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsada bu sohada tadqiqotlar hali ham davom etmoqda. Bilamizki genderlar lingvistikasi orasidagi farq nafaqat ovoz tembrlarida balki ular so'zlashuvda ko'p foydalanadigan so'zlarda ham seziladi. Gender so'zi ilmiy atama sifatida foydalanilib sotsiologiya, psixologiya, lingvistika va boshqa sohalarda erkak va ayollarning jamiyatdagi o'rni, farqini tasvirlashda ishlatiladi. Jins so'zi esa ko'p hollarda biologik va fiziologik sohada qo'llaniladi. Gender lingvistikasida erkak hamda ayollarning tilidagi o'zaro bog'liq hamda bog'liq bo'lmagan turli xususiyatlar o'rganiladi. Gender lingvistikasi (lingvistik genderologiya) fanlararo gender tadqiqotlarining bir qismi sifatida genderni (ijtimoiy-madaniy jins, an'anaviy konstruktsiya sifatida tushuniladigan, biologik jinsdan nisbatan avtonom) o'rganuvchi lingvistik konseptual foydalanadigan ilmiy yo'nalishdir.

Ko'plab mazkur sohadagi izlanishlar natijasini quyidagi maqollarda ko'rish mumkin:

Yigitga mardlik yarashar, yigitga yig'i yarashmas.

Yigitni bir so'zlik bezar.

Elakka ketgan xotinning ellik og'iz gapi bor.

Ayolning makri qirq tuyaga yuk.

Erkakning kuchi uning aqlida.

Woman's tongue wags like lamb/s tail [13; 45].

"A silent woman is a gift from God".

"Women are necessary evils".

Keltirilgan maqollarda ayollarning so'zlashuviga xos holatlar (tilning o'tkirligi, ko'p gapirishi, muhokamaga moyilligi) tasvirlangan. Bu misollarning barchasi dunyodagi hamma ayollarga tegishli deb bo'lmaydi ko'pi stereotip sifatida shakllanib qotgan. Erkaklar haqidagi misollar ham shunday bir holatda namoyon bo'ladi. [14;89].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, zamonaviy ijtimoiy ilm-fan "jins" va "gender" tushunchalarini ajratadi. Jins biologik kategoriya sifatida shaxsning anatomik-fiziologik xususiyatlarini belgilaydi. Gender esa ijtimoiy-madaniy me'yorlar ta'sirida ayol va erkaklarning o'ziga xos genderini, ya'ni ularning psixologiyasi, faoliyati va jamiyat tomonidan birlashtirilgan andozalarni o'zlashtirish qonuniyatlari majmuidir. Shunga ko'ra, "gender" termini jinslararo farqni (biologik emas) ijtimoiy madaniy nuqtai nazardan ko'rib chiqish ehtiyojining yuzaga kelishi natijasida paydo bo'ldi.

Zamonaviy gender tilshunosligi u yoki bu jins egasining nutqiy faoliyati va tilga ta'sirini emas, balki har bir jinsning o'ziga xos genderining hosil bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun tilda mavjud vositalarni tadqiq etadi.

Shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi uning nutqiy faoliyatini belgilashi mumkin va, aksincha, ayol va erkaklar ovozlarning farqlari demografik xarakter bilan birga ularning genderini (ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, shuningdek, nutqiy salohiyati) ham aniqlash imkonini beradi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ayol va erkak orasidagi nutqiy faoliyatlar farqlarini har xil madaniyatlar farqi sifatida ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Адам & Ева: Альманах гендерной истории: Сб. науч. тр. института всеобщей истории РАН. – М.: Алетея, 2003. – 472 с.

2. Ашурова Д.У. Коммуникативно-когнитивная теория текста // Linguistics. - Тошкент, 2010. – С. 17-24.

3. Ашурова Д.У. Стилистика и гендерная лингвистика // Филология масалалари. – Тошкент, 2007. – № 3 (16). – С. 75-79.

4. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси // Илмий муҳаррир: Ў. Абилов; рус тилидан қисқартирилган таржима: – Т., 2003. – 276 б.
5. Kurzon Dennis . Sexist and Nonsexist Language in Legal Texts: the state of the art // International Journal of the Sociology of Language. Volume 1989, Issue 80. – p.p. 99-114. (online: 30/07/2009).
6. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма // Лингвистика – психология – когнитивная наука. – М., 1994. ВЯ №4. – С. 34-37.
7. Меркулов И.П. Когнитивная наука. Новая философская энциклопедия. – М., 2001. Т.2. – 264с.
8. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – 123с.
9. Картушина Е.А. Сценарий как метод сопоставительной фразеологии / Под ред. А.А.Аминовой, С.Г.Васильева. Сопоставительная филология и полилингвизм – Казань: РИЦ «Школа, 2002. – С. 63-64.
10. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 90б.
11. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина «когнитивный». Вестник Воронеж. Гос. Унив., Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. – С. 4-10.
12. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 49-55.
13. Siedl J., McMordie W. English Idioms and How to Use them. – М., 1983. – 265p.
14. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003. – 364p.